QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2024-yil 23-iyul | 215-13-185-Q/24 | Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy budjet daromadlarining 2024-yil boshiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari hamda “Budjet kodeksi”ga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Quyidagilar:

tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayevning Qo‘ng‘irot tumani hokimligi hisobidagi xizmat avtomashinalari uchun ehtiyot qismlar xarid qilish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish zururati paydo bo‘lganligi;

mazkur extiyot qismlar xaridini va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish uchun jami 42 275 000 *(qirq ikki million ikki yuz yetmish besh ming)* so‘m mablag‘ zarurligi to‘g‘risidagi;

ushbu mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2024 yil boshiga aniqlangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) mazkur farmoyishning 1-bandi uchinchi xatboshida ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni tuman hokimligining tegishli g‘azna hisob-raqamiga ajratilishini ta’minlasin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Djumaniyazov) bilan birgalikda ajratilgan mablag‘lardan maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin. Bunda, ajratilgan mablag‘lar hisobiga davlat xaridlarini amalga oshirish bo‘yicha shartnomalar tuzishda tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga hamda narx-navoni haqiqiy bozor qiymatidan kelib chiqib belgilanishiga tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Murtazayev) hamda bosh hisobchi (Qaldibayev) shaxsan javobgar etib belgilansin.

4. Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining kotibiyati (B.Ualibayeva)ga mazkur qarorni tasdiqlash masalasini ko‘rib chiqish uchun Xalq deputatlari Qo‘ng‘irot tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi kun tartibiga kiritish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Murtazayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**